

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

MILLIY VA ZAMONAVIY USLUBDAGI UMUMIY OVQATLANISH BINOLARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Ph.D, Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti
"Arxitektura" kafedrası dotsenti, a.f.n.
Aymatov Anvarbek Abdixoliqovich

SamDAQU 201-B va IA guruhi magistranti
Alijanova Matlubaxon Shakirjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, umumiy ovqatlanish binolarining milliylik va zamonaviylik an`analari tadqiq qilingan. Milliy va zamonaviy uslubdagi umumiy ovqatlanish binolarining shakllantirish tamoyillari aniqlangan. Umumiy ovqatlanish binolarining milliy va zamonaviylik an`analari atroflicha ochib berilgan.

Kalit so`zlar: umumiy ovqatlanish binolari, tamoyil, milliylik, zamonaviylik, Buse Dastan Architects, choyxona, restoran, kafe.

Umumiy ovqatlanish binolari bugungi kunda ham ijimoiy, ham iqtisodiy ahamiyatga ega. Umumiy ovqatlanish binolari uzoq yillik tarixga ega, shuningdek, bir necha rivojlanish bosqichlaridan o`tgan. Biz bugungi kundagi va kelajakda loyihalanayotgan umumiy ovqatlanish binolarini milliylik va zamonaviylik an`analariga ko`ra 3 turga ajratdik.

Milliy uslubdagi umumiy ovqatlanish muassasalari. Bular, asosan, choyxonalar bo`lib, azaldan milliy qadriyatlarimizni o`zida aks ettirgan maskan sifatida namoyon bo`ladi. Bunday choyxonalarimiz milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, sharq arxitekturasini o`zida jamlab yanada boyitishga xizmat qiladi.

O`tkazgan tadqiqotlardan kelib chiqib, milliy an`analarimiz asosida tarixan shakllanib kelgan choyxona modelini yaratishni taklif qilaman. Ushbu model quyidagi nazariy tamoyillar asosida yaratilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

Choyxona binosini loyihalash uchun hudud tanlashda masjid va mahalla markazlarga yaqin bo`lgan hududlarni tanlash;

- Hududning tarixini o`rganib, tarixiylik ahamiyatini aniqlash va hududda oldin mavjud bo`lgan choyxonalar tarixini o`rganish. Agar tarixiy choyxonalar mavjud bo`lsa, ularni qayta tiklash choralari ko`rish;
- Hududda istiqomat qiluvchi aholining xohish va istaklarini o`rganish va buning natijasida ushbu hududda choyxona uchun ehtiyoj darajasini aniqlash;
- Aholining milliy urf-odat va an`analarini o`rganish;
- Hududdagi mavjud jamoat binolari, xususan, masjid va madrasalarning arxitekturaviy-badiiy kompozitsiyalarini o`rganish va ularda qo`llanilgan milliy arxitektura elementlarini aniqlash;

Yuqoridagi tamoyillar asosida milliy ruhdagi sharq arxitekturasiga xos bo'lgan choyxona modelini yaratishni maqsad qildik. Bundan asosiy maqsad o'z ahamiyatini yo'qotib borayotgan milliy arxitekturamizni targ'ib qilish, insonlarga ko'rsatish va ularda faxr tuyg'usini uyg'otish. Bundan tashqari sharqona milliy arxitekturamizni bus butunligicha kelajak avlodga yetkazish asosiy yutuqlarimizdan hisoblanadi.

Milliy choyxonalarimizni qayta tiklashdan asosiy maqsad yosh avlodga milliy sharqona arxitekturamizni, milliy qadriyatlarimizni ko'rsatish, ularning ommaviy madaniyatga qarab ketayotgan tarbiyasi va ma'naviy dunyosini yod tushunchalardan tozalash. O'zimizning milliy arxitekturamiz naqadar boy, ulug'vor ekanligini ko'rsatib, har qanday zamonaviy arxitektura binolari bilan bellasha olishini ko'rsatish va ularda faxr va vatanparlik tuyg'ularini shakllantirishdan iborat.

Zamonaviy uslubdagi umumiy ovqatlanish muassasalari. Bularga kafe va barlar, tez ovqatlanishga mo'ljallangan muassasalarni kiritamiz. Bunday ovqatlanish muassasalarining asosiy vazifasi ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ularni shahar markazlarida, jamoat binolari oldida, ta'lim muassasalari qoshida va piyodalar kesishmalarida loyihalanadi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib xo'randalarga qulay sharoit yaratish uchun xizmat qiladi. Yarimtayyor ishlab chiqarishga asoslangan bo'ladi. Shuning uchun ovqatlanish zali umumiy bo'lib, ishlab chiqarish bo'limi zalga yaqin va tarqatish bo'limi bilan bog'lanadi. Ushbu muassasalarga ko'proq yoshlar tashrif buyurishadi. Binoning ichki va tashqi muhitida zamonaviy uslublardan foydalaniladi. Bu dunyo bilan hamnafas bo'lishda asosiy o'rinni egallaydi. Tashrif buyurgan yosh qatlam zamonaviy an'analardan ilhomlanib, yanaqa yangi g'oyalar tug'ilishiga xizmat qilishni nazarda tutadi.

Zamonaviy an'analarga asoslangan ovqatlanish korxonalarini loyihalashdagi asosiy tamoyil bu –maqsadli yaratishdir. Ya'ni qo'llanilayotgan har bir arxitektura elementi gapirishi kerak. Binoning asosiy fasadlarini yaratishda shunchaki zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanishning o'zi yetarli emas. G'iyotening "Arxitektura bu- qotib qolgan musiqa" nazariyasini keltirish o'rinli. Ovqatlanish korxonalarida arxitektura elementlari juda muhim. Biz zamonaviy an'analarga asosida qurilayotgan ovqatlanish muassasalarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak. Bunday kafe va oshxonalarimiz soni ortishi natijasida raqobat kuchayib bormoqda. Xo'randalarni diqqatini jalb etish uchun nafaqat taom va xizmat sifatiga e'tibor berishdan tashqari binoning arxitekturasi ham stol servisi va taomlarning taklif qilinishida muhim ahamiyatga ega. Milliy arxitekturamizda sharqona tayyor arxitektura elementlari mavjud. Ammo zamonaviy uslub va an'analarga ko'pligi va bir biriga o'xshashligi sababli arxitektorlar xatolikka yo'l qo'yishadi. Shuning uchun zamonaviy arxitektura shakllaridan maqsadli foydalanish maqsadga muvofiq. Zamonaviy uslubdagi ovqatlanish korxonalarini loyihalash bo'yicha Yevropa davlatlari katta tajribaga ega. Bu borada Buse Dastan Architects o'zining restoran dizayni nazariyalari bilan mashhur.

Zamonaviy va milliy uslubni o'zida uyg'unlashtirgan umumiy ovqatlanish muassasalari. Yirik ovqatlanish muassasalarini kiritamiz, ya'ni restoranlar. Restoranlar oilaviy yoki jamoaviy ovqatlanishga mo'ljallanib, zamonaviy talablarga javob beruvchi, shuningdek, milliy sharq arxitektura elementlarini stilizatsiya qilib, qo'llash orqali tugal arxitekturaviy-badiiy yechimga ega muassasa bo'lishi nazarda tutiladi. Bunday uslubdagi ovqatlanish muassasalari mavjud, biroq, ularda arxitektura qonuniyatlari qo'pol ravishda buzilganligini ko'rishimiz mumkin. Milliy arxitekturamizni stilizatsiya qilishda shaklning asosiy qolipini yo'qotib qo'ymaslik kerak. Biz bilamiz, milliy sharq arxitekturasi arxitekturaviy kompozitsiya elementlari: ritm, nisbat, simmetriya, assimetriya, contrast va nyuanslarga asoslanadi. Bulardan to'g'ri foydalanish natijasida biz ko'rib faxrlanib turgan milliy sharqona arxitekturamiz paydo bo'lgan. Hozirgi kunda arxitektorlarimiz ovqatlanish korxonalarini loyihalashda yoki rekonstruksiya qilishda milliy sharq arxitekturamizga murojaat qilishmoqda. Ammo, ularning bilimi va malakalari yetarli emasligi natijasida kelajak avlodga biz asrlar davomida shakllanib bo'lgan milliy arxitekturamizni buzib yetkazib berishga xizmat qilmoqda. Shuning uchun binoning old fasadlarida qo'llanilayotgan ustun va karnizlarning nisbatini to'g'ri tanlash, oyna va kirish eshiklarda peshtoq va toqlarning shaklini to'g'ri tanlash tugal arxitekturaviy-badiiy yechimni beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida tadqiqot uchun tanlangan hududdagi umumiy ovqatlanish binolari arxitekturasini tartibga solish va ulardagi muammolarni bartaraf etish uchun mavjud va kelajakda loyihalanayotgan umumiy ovqatlanish binolari uchun uch turdagi umumiy ovqatlanish binolarini shakllantirish tamoyillarini ishlab chiqdik. Ushbu tamoyillarni ishlab chiqishda ishlab chiqishda umumiy ovqatlanish binolarida milliylik va zamonaviylik an'analarini qo'llashga ko'proq e'tibor qaratdik

Adabiyotlar

1. Ubaydullayev N.M , Inog'omova M.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari - Toshkent: Voris nashriyoti, 2009
2. Uralov A.S, Kushmanov T.F. Binolar tipologiyasi - Toshkent:2012
3. Nasirov. B Umumiy ovqatlanish tizimidagi o'zgarishlar va muammolar (XIX asr oxiri-XX asr o'rtalarida) mavzusidagi ilmiy maqola.
4. Talipov M.A, Baymetova Z.B. XX asrning birinchi yarmida Toshkentda barpo etilgan noyob me'moriy binolarning turizmdagi ahamiyati mavzusidagi ilmiy maqola.
5. <https://www.wallpaper.com/gallery/architecture/bold-architectural-pavilions-and-temporary-structures>